




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-fevral)

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oyida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 1 510,2 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 119,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,57 % ni tashkil etdi.


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida 21,7 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoatida – 2,4 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 7,6 % ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 28,8 % ga kamayish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,031 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 428,2 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,566 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 41,2 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 27,3 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 18,0 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 41,2 %.**




**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 27,3%.**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -18,0%.**




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,816 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash – 69,1 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 30,9 % tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 69,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,587 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 92,4 % ni tashkil qildi.






**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)**

| Sanoat mahsulotlari   | 2021 - yil yanvar-fevral | 2020 - yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|--------------------------|--------------------------|-----------|
| <b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:</b>   | 30,2                     | 40,5                     | -10,3     |
| <b>Issiqlik energiyasi – ming Gkal:</b>   | 32,8                     | 32,7                     | 0,1       |
| <b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:</b>   | 7841,0                   | 8485,0                   | -644,0    |
| <b>Maxsus yengil avtomobillar – dona:</b>   | 1219,0                   | 815,0                    | 404,0     |
| <b>Aroq – ming litr:</b>  | 13,8                     | 82,4                     | -68,6     |
| <b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:</b> | 2,0                      | 4,0                      | -2,0      |
| <b>Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:</b>   | 65,8                     | 94,0                     | -28,2     |
| <b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:</b>   | 14760,8                  | 14811,1                  | -50,3     |
| <b>Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:</b>   | 3425,7                   | 2043,0                   | 1382,7    |
| <b>Xo‘jalik sovuni – tonna:</b>   | 841,0                    | 823,0                    | 18,0      |
| <b>Paxta tolasi – tonna:</b>  | 6441,0                   | 13262,2                  | -6821,2   |
| <b>Paxta chigit – tonna:</b>  | 14546,6                  | 21389,6                  | -6843,0   |

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 10,3 mln. kVts ga, yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) 644,0 donaga, aroq 68,6 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari (konyak spirtidan tashqari) 2,0 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 28,2 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 50,3 tonnaga, paxta tolasi 6821,2 tonnaga, paxta chigit 6843,0 tonnaga kamaygan.

Maxsus issiqlik energiyasi, maxsus yengil avtomobillar, tozalangan o‘simplik yog‘i, xo‘jalik sovuni sezilarli darajada oshgan.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2020 - yil yanvar-fevral oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 4,1 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 - yil yanvar-fevral oylarida bu ko‘rsatkich 3,9 % ga, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning 43,2 % dan 42,8 % ga kamaygan bo‘lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 % dan 0,02 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarish 45,9 % dan 47,9 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,3 mlrd. so‘mlik (2020 - yil yanvar-fevral oylarida 0,3 mlrd. so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 646,3 mlrd. so‘mlik (576,8 mlrd. so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 58,6 mlrd. so‘mlik (54,9 mlrd. so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 722,9 mlrd. so‘mlik (612,3 mlrd. so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



## Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

| <b>Shahar va tumanlar nomi</b> | <b>2021 - yil<br/>yanvar-fevral<br/>mlrd. so 'm</b> | <b>Fizik hajm<br/>indeksi, % da</b> |
|--------------------------------|---|-------------------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b>         | <b>1 510,2</b>                                      | <b>119,6</b>                        |
| Urganch shahri                 | 296,5   | 114,4                               |
| Xiva shahri                    | 13,1  | 79,3                                |
| <i>shundan tumanlar,</i>       |   |                                     |
| Bog'ot tumani                  | 40,6  | 93,0                                |
| Gurlan tumani                  | 72,3  | 104,2                               |
| Qo'shko'pir tumani             | 60,2  | 72,8                                |
| Urganch tumani                 | 42,8  | 96,1                                |
| Hazorasp tumani                | 72,2  | 111,4                               |
| Tuproqqa'l'a tumani*           | 641,5   | 106,8                               |
| Xonqa tumani                   | 85,8  | 115,9                               |
| Xiva tumani                    | 30,0  | 172,8                               |
| Shovot tumani                  | 52,0  | 95,3                                |
| Yangiariq tumani               | 43,2  | 79,9                                |
| Yangibozor tumani              | 60,0  | 115,1                               |

Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Tuproqqa'l'a tumani, Urganch shahri, Gurlan, Yangibozor, Xiva, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

**\*Tuproqqa'l'a tumani – 2020 - yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.**





## Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-fevralga nisbatan Xiva tumanida 172,8 %, Xonqa tumanida 115,9%, Yangibozor tumanida 115,1 %, Urganch shaxri 114,4 %, Hazorasp tumanida 111,4 %, Tuproqqa'l'a tumanida 106,8 %, Gurlan tumanida 104,2 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

**SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI**

2020 - YIL YANVAR-FEVRAL OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 42,5 %), Urganch shahri (19,6 %), Xonqa (5,7%), Hazorasp (4,8 %) hamda Gurlan (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva shahri (0,9 %) va Xiva tumaniga (2,0 %) to'g'ri kelmoqda.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari:

2021 - yil  
yanvar-fevral

2020 - yil  
yanvar-fevral

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari  
bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi**

1 510,2

1 335,3

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni  
ishlash**

0,4

0,4

*ulardan:*

Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa  
faoliyat

0,4

0,4

**Qayta ishslash faoliyati**

1 428,2

1 244,3

*undan:*

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

234,3

205,5

Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab  
chiqarish

36,9

37,1

To'qimachilik mahsulotlari ishlab  
chiqarish

412,8

337,2

Kiyim ishlab chiqarish

8,6

5,1

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab  
chiqarish

0,9

1,2

Yog'och va po'kak buyumlar, povol va  
to'qish uchun materilallari, ishlab  
chiqarish

1,4

0,9

Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab  
chiqarish

6,9

3,2

Yozilgan materiallarni nashr qilish va  
aks ettirish

0,2

0,2


| <b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>  | <b>2021 - yil<br/>yanvar-fevral</b> | <b>2020 - yil<br/>yanvar-fevral</b> |
|---|-------------------------------------|-------------------------------------|
| Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish  | 0,2                                 | 0,2                                 |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish   | 3,2                                 | 2,3                                 |
| Asosiy farmasevtika   | 0,3                                 | 0,3                                 |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish  | 7,5                                 | 6,9                                 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish  | 29,9                                | 24,6                                |
| Metallurgiya sanoati  | 2,1                                 | 1,2                                 |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish                               | 16,9                                | 19,3                                |
| Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish                                     | 0,07                                | 0,06                                |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish   | 3,2                                 | 3,4                                 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish                            | 17,3                                | 3,3                                 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish                       | 622,1                               | 567,9                               |
| Mebel ishlab chiqarish  | 3,8                                 | 4,9                                 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish   | 17,1                                | 17,1                                |
| Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish    | 2,1                                 | 2,9                                 |
| <b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>                              | <b>69,3</b>                         | <b>80,5</b>                         |
| <b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b> | <b>12,3</b>                         | <b>10,1</b>                         |




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 875,7 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 96,3 % ni tashkil etdi.

2021 - yil yanvar-fevral



2020 - yil yanvar-fevral



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 226,0 mlrd. so'mni, alkogol ichimliklar 1,2 mlrd. so'mni va 648,5 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar-fеврал оylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 104,2 %, 34,4% va 94,1 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 58,0 % ni (2020 - yil yanvar-fеврал oylarida 68,1 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 50,6 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 534,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 63,3 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o’sish sur’ati  
(2021 - yilning yanvar-fevral oylarida)**

| <b>Shahar va tumanlar nomi</b> | <b>Mlrd. so‘m</b> | <b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b> | <b>2020 - yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da</b> |
|--------------------------------|-------------------|-------------------------------------|---|
| <b>Xorazm viloyati</b>         | <b>875,7</b>      | <b>100,0</b>                        | <b>96,3</b>   |
| Urganch shahri                 | 119,2             | 13,6                                | 117,0   |
| Xiva shahri                    | 11,5              | 1,3                                 | 100,4   |
| <i>shundan tumanlar,</i>       |                   |                                     |   |
| Bog‘ot tumani                  | 19,7              | 2,3                                 | 105,2   |
| Gurlan tumani                  | 30,0              | 3,4                                 | 118,0   |
| Qo‘shko‘pir tumani             | 12,7              | 1,5                                 | 99,3  |
| Urganch tumani                 | 32,8              | 3,7                                 | 104,1   |
| Hazorasp tumani                | 13,6              | 1,6                                 | 77,3  |
| Tuproqqa'l'a tumani            | 540,5             | 61,7                                | 90,7  |
| Xonqa tumani                   | 38,5              | 4,4                                 | 98,5  |
| Xiva tumani                    | 12,7              | 1,4                                 | 108,0   |
| Shovot tumani                  | 19,7              | 2,3                                 | 108,3   |
| Yangiariq tumani               | 12,6              | 1,4                                 | 102,5   |
| Yangibozor tumani              | 12,2              | 1,4                                 | 99,8  |

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqa'l'a tumaniga to‘g‘ri kelib – 61,7 % ni, shuningdek, Urganch shahrida 13,6 % ni, Xonqa tumanida 4,4 % ni, Urganch tumanida 3,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (96,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Gurlan tumanida (118,0 %), Urganch shahrida (117,0 %), Shovot tumanida (108,3%), Xiva tumanida (108,0 %), Bog'ot tumanida (105,2 %), Yangiariq tumanida (102,5 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021 - yilning yanvar-fevral oylarida)**

| <b>Shahar va tumanlar nomi</b> | <b>Mlrd. so'm</b> | <b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b> | <b>2020 - yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da</b> |
|--------------------------------|-------------------|-------------------------------------|---|
| <b>Xorazm viloyati</b>         | <b>226,0</b>      | <b>100,0</b>                        | <b>104,2</b>  |
| Urganch shahri                 | 79,7              | 35,3                                | 119,6   |
| Xiva shahri                    | 7,6               | 3,4                                 | 99,2  |
| <i>shundan tumanlar,</i>       |                   |                                     |   |
| Bog'ot tumani                  | 14,3              | 6,3                                 | 101,4   |
| Gurlan tumani                  | 15,1              | 6,7                                 | 97,4  |
| Qo'shko'pir tumani             | 7,8               | 3,5                                 | 102,3   |
| Urganch tumani                 | 20,9              | 9,2                                 | 87,2  |
| Hazorasp tumani                | 9,5               | 4,2                                 | 96,3  |
| Tuproqqa'l'a tumani            | 4,2               | 1,8                                 | 100,6   |
| Xonqa tumani                   | 28,3              | 12,5                                | 97,5  |
| Xiva tumani                    | 8,4               | 3,7                                 | 103,5   |
| Shovot tumani                  | 14,2              | 6,3                                 | 101,5   |
| Yangiariq tumani               | 7,6               | 3,4                                 | 99,1  |
| Yangibozor tumani              | 8,4               | 3,7                                 | 97,9  |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulush Urganch shahriga to‘g‘ri kelib - 35,3 % tashkil etdi, shuningdek, Xonqa tumanida 12,5 %, Urganch tumanida 9,2 %, Gurlan tumanida 6,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Urganch shahrida (119,6 %) va Xiva tumanida (103,5 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**  
*(2021 - yilning yanvar-fevral oylarida)*

| <b>Shahar va tumanlar nomi</b> | <b>Mlrd. so‘m</b> | <b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b> | <b>2020 - yil yanvar-fevral nisbatan, % da</b> |
|--------------------------------|-------------------|-------------------------------------|--|
| <b>Xorazm viloyati</b>         | <b>648,5</b>      | <b>100,0</b>                        | <b>94,1</b>                                    |
| Urganch shahri                 | 38,3              | 5,9                                 | 120,2  |
| Xiva shahri                    | 3,9               | 0,6                                 | 103,0  |
| <i>shundan tumanlar,</i>       |                   |                                     |  |
| Bog‘ot tumani                  | 5,5               | 0,8                                 | 116,8  |
| Gurlan tumani                  | 14,9              | 2,3                                 | 150,3  |
| Qo‘shko‘pir tumani             | 4,9               | 0,8                                 | 94,8   |
| Urganch tumani                 | 11,9              | 1,8                                 | 157,9  |
| Hazorasp tumani                | 4,1               | 0,6                                 | 53,0   |
| Tuproqqal'a tumani             | 536,4             | 82,7                                | 90,6   |
| Xonqa tumani                   | 10,2              | 1,6                                 | 101,4  |
| Xiva tumani                    | 4,2               | 0,7                                 | 118,2  |
| Shovot tumani                  | 5,5               | 0,8                                 | 131,0  |
| Yangiariq tumani               | 4,9               | 0,8                                 | 108,3  |
| Yangibozor tumani              | 3,8               | 0,6                                 | 104,3  |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi (82,7 %), shuningdek, Urganch shahrida 5,9 % ni, Gurlan tumanida 2,3 % ni, Xonqa tumanida 1,6 % ni va Urganch tumanida 1,8 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (94,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Urganch tumani (157,9 %), Gurlan tumani (150,3 %), Shovot tumani (131,0 %), Urganch shahri (120,2%), Xiva tumani (118,2 %), Bog'ot tumani (116,8 %), Yangiariq tumani (108,3 %), Yangibozor tumani (104,3%) tashkil qildi.



### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2020 - yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar-fevral oylariga nisbatan Gurlan tumanida (118,0 %), Urganch shahrida (117,0 %), Shovot tumanida (108,3 %), Xiva tumanida (108,0 %), Bog'ot tumanida (105,2 %), Yangiariq tumanida (102,5 %), Urganch tumanida (104,1 %), Xiva shahrida (100,4 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Yangibozor tumanida (99,8 %), Qo'shko'pir tumanida (99,3%), Xonqa tumanida (98,5%), Tuproqqa'l'a tumanida (90,7 %), Hazorasp tumanida (77,3 %) kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2021 - yil yanvar-fevral oylarida, ming so‘m)**


| Shahar va tumanlar nomi  | Sanoat mahsulotlari | 2020 - yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da | Iste’mol mahsulotlari | 2020 - yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da |
|--------------------------|---------------------|--|-----------------------|--|
| <b>Xorazm viloyati</b>   | <b>803,4</b>        | <b>117,8</b>                                     | <b>465,9</b>          | <b>94,9</b>                                      |
| Urganch sh.              | 2 054,2             | 113,1  | 825,9                 | 115,6  |
| Xiva sh.                 | 140,7               | 78,2   | 124,1                 | 99,1   |
| <i>shundan tumanlar,</i> |                     |  |                       |  |
| Bog‘ot                   | 246,1               | 91,4   | 119,5                 | 103,4  |
| Gurlan                   | 486,8               | 102,8  | 202,2                 | 116,4  |
| Qo‘siko‘pir              | 348,7               | 71,7   | 73,7                  | 97,8   |
| Urganch                  | 214,9               | 94,3   | 164,4                 | 102,2  |
| Hazorasp                 | 372,1               | 140,9  | 70,0                  | 97,8   |
| Tuproqqał'a              | 11 580,6            |  | 9 758,3               |  |
| Xonqa                    | 459,3               | 114,2  | 205,8                 | 97,0   |
| Xiva                     | 205,2               | 169,9  | 86,7                  | 106,2  |
| Shovot                   | 304,9               | 93,9   | 115,9                 | 106,7  |
| Yangiariq                | 371,6               | 78,7   | 107,9                 | 101,0  |
| Yangibozor               | 684,8               | 113,5  | 139,4                 | 98,5   |

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 803,4 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 117,8 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yil yanvar-fevral oylarida Gurlan tumanida 470,8 ming so‘mdan 486,8 ming so‘mga, Xonqa tumanida 414,5 ming so‘mdan 459,3 ming so‘mga va Yangibozor tumanida

536,4 ming so‘mdan 684,8 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (11 580,6 ming so‘m), Urganch shahrida (2 054,2 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (803,4 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.

Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo‘yicha 465,9 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 94,9 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-fevral oylarida ushbu ko‘rsatkich Urganch shahrida 812,2 ming so‘mdan 2021 - yil yanvar-fevral oylarida 825,9 ming so‘mga, Gurlan tumanida 168,8 ming so‘mdan 202,2 ming so‘mga, Qo’shko‘pir tumanida 59,6 ming so‘mdan 73,7 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 95,5 ming so‘mdan 107,9 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021 - yil yanvar-fevral oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Qo’shko‘pir tumani (100 %), Gurlan tumani (100 %), Yangiariq tumani (100 %), Urganch tumani (79,2 %), Bog‘ot tumani (75,5 %), hissasiga to‘g’ri kelgan.

Viloyatda yanvar-fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 436,8 mld. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 28,9 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili Tuproqqa‘l tumani (2,6 %), Yangibozor tumani (19,2 %), Hazorasp tumani (21,7 %), Urganch shahrida (23,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



### **Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 201,6 mld. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 13,3 % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo‘limi  
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99